



Olimpiada topshiriqlari

Davlat va huquq asoslari fani 11-sinf

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Federativ davlatlar to'g'ri berilgan qatorni toping?

- A) Germaniya, Yaponiya B) O'zbekiston, Rossiya C) AQSH, Fransiya D) Germaniya, Rossiya

2. Mulk huquqi, erkin kasb tanlash va mehnat qilish huquqlari insonning qaysi huquqlari tarkibiga kiradi?

- A) Shaxsiy huquqlar B) Siyosiy huquqlar C) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar D) Madaniy huquqlar

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha referendum qachon o'tkazildi?

- A) 2021-yil 12-yanvar B) 2022-yil 5-dekabr C) 2023-yil 30-aprel D) 2023-yil 2-may

4. Fuqarolik huquqi dastlab qayerda vujudga kelgan?

- A) Qadimgi Yunonistonda B) Mesopatamiyada C) Qadimgi Bobilda D) Qadimgi Rimda

5. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va to'liq tartibi kim tomonidan belgilanadi?

- A) Sog'liqni saqlash vazirligi
B) Vazirlar Mahkamasi
C) Mahalliy hokimiyat organlari
D) FHDYO organlari

6. Prokuror nimani nazorat qiladi?

- A) Tergov ishlarini
B) Sudlov ishlarini
C) Qonunlarning aniq bajarilishini
D) Hukm ijrosini

7. Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?

- A) qonunlarni bilish va hurmat qilish
B) qonunlarni joriy etish
C) qonunlarga moslashish
D) qonunlar bilan aloqadorlik

8. Respublika boshqaruvining qanday turlari mavjud?

- A) Prezidentlik va mutlaq
B) Konstitutsiyaviy va parlamentar
C) Prezidentlik va parlamentar
D) Mutlaq va parlamentar

9. Huquqlarda tenglashish ma'nosini anglatuvchi lotincha so'zni toping?

- A) Diskriminatsiya
B) Emansipatsiya
C) Innaguratsiya
D) Denonsatsiya

10. Mamlakatimiz konstitutsiyasining nechanchi moddasida gender tenglik mustahkamlab qo'yilgan?

- A) 21-moddasida
B) 58-moddasida
C) 101-moddasida
D) 34-moddasida

Olimpiada topshiriqlari

Davlat va huquq asoslari fani 11-sinf

2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Oila sohasida bizning jamiyatimizda mavjud bo'lgan yuksak axloqiy qoidalaridan kelib chiquvchi tamoyilni toping.

- A) Nikohda uchinchi shaxsning aralashmasligi
- B) Er-xotinning teng huquqliligi
- C) Yakka nikohlilik
- D) Ota-ona roziligi

12. Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qachondan aholining turli qatlamlari o'rtasida nikohdan oldingi kelishuvlar keng tarqalgan?

- A) XIII-XV asrlarda
- B) XV-XVII asrlarda
- C) XVI-XIX asrlarda
- D) XVIII-XIX asrlarda

13. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha nechta xalqaro hujjatlarga qo'shilgan?

- A) 10 dan ortiq
- B) 80 dan ortiq
- C) 200 dan ortiq
- D) 100 dan ortiq

14. Oilaviy huquqiy munosabatlarda qanday elementlarni ko'rish mumkin?

- A) obyekt, subyekt, subyektiv huquq
- B) subyekt, subyektiv huquq va majburiyat
- C) subyekt, obyekt va erkinlik
- D) nikoh, nikoh shartnomasi va oila

15. Mehnat qonunchiligiga ko'ra ish vaqti 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga haftasiga qancha soat ishlashga ruxsat etilgan?

- A) 24 soat
- B) 30 soat
- C) 35 soat
- D) 36 soat

16. Qaysi manbaa ayol kishi shaxsiy mulkka ega bo'lishining huquqiy asoslarini ko'rsatib beradi?

- A) Avesto
- C) Qobusnoma
- B) Temur tuzuklari
- D) Farzandnoma

17. Qaysi qatorda er-xotinning huquq va majburiyatlari berilgan?

- A) Shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlar
- B) Iqtisodiy, siyosiy huquq va majburiyatlar
- C) Ijtimoiy, shaxsiy huquq va majburiyatlar
- D) Madaniy, mulkiy huquq va majburiyatlar

18. Ma'lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an'analari o'xshash bo'lgan hamda o'zaro ehtiyoj va manfaatlari yo'lida birlashgan insonlar guruhi nima deyiladi?

- A) Jamiyat
- B) Jamoa
- C) Ibtidoiy guruh
- D) Tashkilot

Olimpiada topshiriqlari

Davlat va huquq asoslari fani 11-sinf

19. Shaxsning huquqiy maqomi deganda nima tushuniladi?

- A) shaxsning majburiyatlari va huquqlari yig'indisi
- B) shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari yig'indisi
- C) shaxsning majburiyatlari va erkinliklari yig'indisi
- D) shaxsning majburiyatlari yig'indisi

20. "Aql tarozisida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir". Ushbu jumla muallifini toping.

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Abu Nasr Forobiy
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Teodor Ruzvelt

3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlirlar". Ushbu jumla Konstitutsiyaning nechanchi moddasida aks etgan?

- A) 51-modda
- B) 64-modda
- C) 41-modda
- D) 35-modda

22. Qonun ustuvorligi deganda ...

- A) Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini qo'llab-quvvatlaydigan, davlat boshqaruvi o'zboshimchalik bilan amalga oshirilmaligini kafolatlaydigan, umuman olganda, hokimiyatdan o'zboshimchalik bilan foydalanilishining oldini oluvchi mexanizm, jarayon, institut, amaliyot yoki norma tushuniladi
- B) Inson huquqlari, uning qadr-qimmati va erkinliklarini himoya qilishga qaratilganligi tushuniladi
- C) Qonunni yetakchi tashkilotlar tomonidan tan olinishi tushuniladi
- D) Barcha qonunosti va huquqni qo'llash hujjatlari qonunga muvofiq bo'lishi va unga zid bo'lmasligi nazarda tutiladi

23. Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. Ushbu so'zlar muallifi kim?

- A) Alisher Navoiy
- B) Amir Temur
- C) Majididdin Xavofiy
- D) Muhammad Kamol Pilavov

24. Yurtimizda oilani mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan oilalarga beradigan qanday ko'krak nishoni ta'sis etilgan?

- A) "Fazilatli oila" B) "Ibratli oila"
- C) "Faol oila" D) "Oila - muqaddas"

25. Ijtimoiy yordam – bu ...

- A) aholining yordamga muhtoj qatlamining maksimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, tashkilot tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya turi
- B) aholining barcha qatlamining maksimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya turi
- C) aholining yordamga muhtoj qatlamining minimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya turi
- D) aholining barcha qatlamining minimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, tashkilot tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya turi

Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi)

Davlat va huquq asoslari fani 11-sinf

26. Intizomiy jazolar kim tomonidan qo'llaniladi?

- A) Ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi
- B) Sud tomonidan qo'llaniladi
- C) Hokimiyat tomonidan qo'llaniladi
- D) Prokuror tomonidan qo'llaniladi

27. Prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri nima?

- A) Fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi
- B) Fuqarolarning majburiyatlarini, jamiyatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi
- C) Fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini qayta tiklash hisoblanadi
- D) Fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash hisoblanadi

28. Bolalarning huquq va qonuniy manfaatlari kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

1. Ota-ona; 2. Ota-onasi yo'q bo'lsa, ota-onasining o'rnini bosuvchilar; 3. Prokuratura; 4. Vasiylik va homiylik idoralari; 5. Sud

- A) 1, 2, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 5
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 2, 5

29. Gender tenglik deganda ...

- A) insonlarga jinsidan qat'i nazar, bir xil huquq, erkinlik va imkoniyatlarning taqdim etilishi, iqtisodiy faoliyatda hamda qarorlar qabul qilishda tenglikning yaratilishi kabilar tushuniladi
- B) insonlarga mol-mulkni teng taqsimanishi tushuniladi
- C) insonning boshqa birovning qadr-qimmati, sha'ni-obro'sini hurmat qilgan holda muomala qilishi tushuniladi
- D) ma'lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an'analari o'xshash bo'lgan hamda o'zaro ehtiyoj va manfaatlari yo'lida birlashgan insonlar tushuniladi

30. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida insonning hayoti, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi mustahkamlab qo'yilgan?

- A) 13-moddasida
- B) 21-moddasida
- C) 40-moddasida
- D) 55-moddasida